

Doimiy aholi soni. Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2020 yil 1 iyul holatiga 3910,8 ming kishini tashkil etib, 2020 yil boshidan 33,5 ming kishiga yoki 0,9 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1448,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,0 %), qishloq aholisi soni 2462,2 ming kishini (63,0 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020 yil yanvar-iyun

Doimiy aholi soni **33,5 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **44,4 ming nafarni** tashkil etdi.

7,7 mingta vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'lmlarida **7,1 mingta nikoh** va **1,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

2020-yil 1-iyul holatiga
ko'ra, doimiy aholi soni
3 910,8 ming kishiga
yetdi



2020-yil boshiga nisbatan
33,5 ming kishi yoki
0,9% ga o'sgan



Shahar aholisi soni-
1 448,6 ming kishi



Qishloq aholisi soni-
2 462,2 ming kishi



Tirik tug'ilganlar soni-
44,4 ming kishi



O'lganlar soni-
7,7 ming kishi




Nikohlar soni-
7,1 ming birlik




Ajrimlar soni-
1,3 ming birlik



Samarqand viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020 yil yanvar-iyun, ming kishi)



Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi (2020 yil iyul holatiga, 1 kv.km. ga kishi)



Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar
(yanvar-iyun, ming kishi)

	2019 y.	2020 y.
--	----------------	----------------

Doimiy aholi soni, (1 iyul holatiga)	3833,2	3910,8
Tug'ilganlar	44,6	44,4
Vafot etganlar	7,8	7,7
Aholining tabiiy o'sishi	34,3	33,5
Kelganlar	4,4	2,2
Ketganlar	6,9	5,4
Migratsiya sal'dosi	-2,5	-3,2
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	11,6	7,1
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	1,7	1,3

1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille

tug'ilish	23,6	23,0
o'lim	4,1	4,0
aholining tabiiy o'sishi	19,5	19,0
tuzilgan nikohlar	6,1	3,7
nikohdan ajralishlar	0,9	0,7





SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Doimiy aholi soni

(1 iyul holatiga, ming kishi)

	2019 y.	2020 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	3833,2	3910,8	102,0
Samarqand sh.	542,2	549,9	101,4
Kattaqo'rg'on sh.	88,7	90,2	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	156,9	160,0	102,0
Bulung'ur	184,4	187,8	101,8
Jomboy	169,6	173,8	102,5
Ishtixon	250,1	255,7	102,2
Kattaqo'rg'on	269,2	274,3	101,9
Qo'shrabot	129,6	132,5	102,2
Narpay	210,3	214,1	101,8
Payariq	246,4	251,9	102,2
Pastdarg'om	349,0	356,0	102,0
Paxtachi	142,5	144,9	101,7
Samarqand	248,5	253,8	102,1
Nurobod	148,1	151,1	102,0
Urgut	499,9	512,4	102,5
Tayloq	197,8	202,4	102,3

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


(2020 yil 1 iyul holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahriga to`g`ri kelib, viloyat aholisi sonidagi ulushi - 14,1 %ni tashkil etdi. Urgut - 13,1 %ni, Pastdarg'om - 9,1 %ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7,0 %ni tashkil etgan.

Tug'ilish. 2020 yilning yanvar-iyun oylarida 44444 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,0 promilleni tashkil etib, (2019 yilning yanvar-iyun oylarida 23,6 promille bo'lgan) tug'ilish koeffitsiyenti o'zgarganini ko`rshimiz mumkin.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2020 yil yanvar-iyun)




Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




Vafot etganlar. 2020 yilning yanvar-iyun oylarida 7740 kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,0 promilleni tashkil etdi va 2019 yilning mos davriga nisbatan (2019 yilning yanvar-iyun oylarida 4,1 promille bo'lgan) o'lim koeffitsiyenti 0,1 promillega kamaygan.

Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2020 yil yanvar-iyun)




Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar-iyun, kishi)



2020 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,9 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,4 foizi - o'simtalardan, 5,2 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,1 foizi - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,7 foizi - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 foizi - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 16,1 foizi - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lrim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2020 yil yanvar-iyun holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan, %da)




Tabiiy o'sish. 2020 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 36 704 kishini tashkil etib, 2019 yil mos davriga nisbatan 79 kishiga (2019 yilning yanvar-iyun oylarida 36 783 kishi bo'lgan) kamaydi.



Nikoh. 2020 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limgari tomonidan 7 149 kishining nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 3,7 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti
(yanvar-iyun)




■ Tuzilgan nikohlar soni, kishi ● Nikoh tuzish koeffitsiyenti, 1000 aholiga nisbatan, promille

Nikohdan ajralishlar. 2020 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 1 302 kishini nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.

2019 yilning mos davriga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyentining sezilarli darajada kamayishi Kattaqo'rg'on shahrida (1,6 dan 1,2 promillega), va Samarqand shahrida (1,3 dan 1,2 promillega), Oqdaryo (0,9 dan 0,5 promillega), Jomboy (0,9 dan 0,5 promillega), va Ishtixon (0,8 dan 0,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (yanvar-iyun)



Malumot.Net

Migratsiya. 2020 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2 246 kishini ko'chib ketganlar soni esa 5 445 kishini tashkil etdi. Migratsiya sa'ldosi minus 3 199 kishi bo'lib, 2019 yilning mos davrida minus 2 523 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (*kishi*)

	2019 yil yanvar-iyun	2020 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	4 397	2 246
Ko'chib ketganlar	2 636	5 445
Migratsiya sa'ldosi	-1 761	-3 199

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Samarqand (minus 68 kishi) hamda Jomboy (minus 28 kishi) tumanlarida kuzatildi.

Migratsiya sal'dosining ijobjiy darajasi Samarqand (plus 385 kishi), Kattaqo'rg'on (plus 684 kishi) shahrida, Payariq (plus 289 kishi), Urgut (plus 286 kishi), Pastdarg'om (plus 240 kishi) va Ishtixon (plus 204 kishi) tumanlarida kuzatildi.



Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(66) 235-72-35